

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 49 729,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 foizga teng bo'ldi.

2022- yil yanvar- sentabr oylarida YAHM deflyator indeksi 109,8 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **47 724,5** ming so'mni tashkil etdi.



Yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi


	<i>mlrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	42 924,6	49 729,0	105,5
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	42 190,7	48 719,6	105,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	733,9	1 009,4	106,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	42 190,7	48 719,6	105,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 256,4	6 473,3	104,5
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	30 978,3	36 116,6	105,4
sanoat	29 382,3	34 241,0	105,3
qurilish	1 596,0	1 875,6	108,6
Xizmatlar	4 956,0	6 129,7	107,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 126,1	1 488,7	116,1


	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>o‘shish sur‘ati, % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	714,8	828,9	110,6
boshqa xizmatlar	3 115,1	3 812,1	103,0



Yanvar- sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi, (% da)

2021- yil






2022- yilning yanvar- sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (116,1 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari (110,6 foiz), qurilish (108,6 foiz) va sanoat (105,3 foiz) tarmoqlaridagi yalpi qo'shilgan qiymat hissasiga to'g'ri keldi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 25,9 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2021-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,7 foizga kamaydi.



2022- yil yanvar- sentabr oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi, (% da)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari

